



# Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi)

Tarix fani 11-sinf

21.10.2024

## 1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Kim Jaloliddin Manguberdi qudratini zaiflashtirish, uning ittifoqchilari o'rtasiga raxna solish siyosatini tutdi?

- A) Nosir                      B) O'zbek  
C) G'iyosiddin              D) Malika Xotun

2. Amerikada birinchi manufakturalar qachon paydo bo'ldi?

- A) XVII asrning ikkinchi yarmida  
B) XVII asrning birinchi yarmida  
C) XVIII asrning birinchi yarmida  
D) XVIII asrning ikkinchi yarmida

3. Eronda qaysi shoh davrida demokratik harakatlar ta'siri ostida zamindor zodogonlarning nafaqasi qisqartirilgan va feodal zamonga xos unvonlari bekor qilingan?

- A) Ahmadshoh                      B) Shoh Muzaffariddin  
C) Muhammad Alishoh              D) Abdulhamid II

4. "Jorulloh" nomi bilan mashhur alloma yurtida davlat chegarasi janubi g'arbda qayergacha borgan?

- A) G'azna      B) Badaxshon  
C) Iroq          D) Marv

5. O'rta asrlarda chetga dori-darmon, rangli shisha buyumlar, bo'yoq chiqargan hudud Mirzo Ulug'bek tomonidan qachon egallangan?

- A) 1409-yil                      B) 1413-yil  
C) 1425-yil                      D) 1414-yil

6. Andijon qaysi davrdan boshlab Farg'ona vodiysining markaziga aylangan?

- A) XIV asrdan boshlab              B) XVI asrdan boshlab  
C) XV asrdan boshlab              D) XVII asrdan boshlab

7. Yurtimizda F. Xo'jayev tavalludining 100 yilligi qachon nishonlangan?

- A) 1991-yil                      B) 1994-yil  
C) 1996-yil                      D) 2002-yil

8. Samarqand shahrida qancha yirik tarixiy me'moriy yodgorliklar mavjud?

- A) 25 dan ortiq                      B) 10 dan ortiq  
C) 40 dan ortiq                      D) 70 dan ortiq

9. Yunon olimi Ptolemey Yer olam markazidir, degan qoidasini xato ekanligini birinchi bo'lib kim isbotlagan?

- A) Galileo Galilei      B) Nikolay Kopernik  
C) Jordano Bruno      D) hali fanda isbotlanmagan

10. 1556-yilda Sirdaryonining quyi etagiga ko'chib kelgan qoraqalpoqlar qaysi xonlik tarkibiga kirgan?

- A) Xiva xonligi  
B) qozoqlarning O'rta Juz xonligi  
C) qozoqlarning Kichik Juz xonligi  
D) No'g'ay xonligi

## 2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Rossiyada qaysi hukmdor davrida davlat lavozimlarini faqat zodagon naslidan bo'lgan kishilar egallashi tartibiga chek qo'yilgan?

- A) Aleksandr II                      B) Pyotr I  
C) Ivan IV                              D) Yekaterina II

12. Amir Temur davlatining tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da ...

- A) madaniy va siyosiy hayoti turlicha bo'lsa-da, yagona xalq sifatida shakllangan  
B) jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi  
C) boshqaruv faqat qarindoshchilik udumlariga asoslangan edi  
D) mamlakatdagi barcha boshqaruv mahalliy boshqaruvga asoslanib, yerli aholiga qoldirilgan

13. "Yilnomalar to'plami" asari muallifini aniqlang

- A) Mirzo Shams Buxoriy  
B) Muhammad Hakimxon  
C) Mir Olim Buxoriy  
D) Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy

14. XX asr boshlarida Fransiya temir rudasi qazib chiqarish bo'yicha qaysi davlatlarni ortda qoldirdi?

- A) Rossiya va Germaniya  
B) AQSH va Buyuk Britaniya  
C) Rossiya va AQSH  
D) AQSH va Germaniya

15. 1992-yildagi referendum natijasiga ko'ra, qaysi mamlakat aholisi bo'linishga qaror qildi?

- A) Yugoslaviya                      B) Bosniya va Gersogovina  
C) Serbiya-Chernogoriya      D) Chexoslovakiya





# Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi)

## Tarix fani 11-sinf

21.10.2024

16. Ma'lumki, Xiva xonligi tashkil topgan davrda uning hududi katta bo'lmagan. Xonlik hududi ... o'z ichiga olgan. 1) g'arbda; 2) shimolda; 3) janubda. a) Orol dengizi havzasini; b) Kaspiy dengizini; c) Atrek daryosi hamda Saraxs atrofigacha bo'lgan hududini.

- A) 1-c, 2-a, 3-b      B) 1-a, 2-b, 3-c  
C) 1-b, 2-a, 3-c      D) 1-b, 2-c, 3-a

17. Quyidagilardan Franklar davlatida Buyuk Karl hukmronlik qilgan yillar oralig'ida sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'ldi  
B) O'g'uzlar davlati qipchoqlar zarbasiga uchrab bo'linib ketdi  
C) Rofe ibn Lays qo'zg'oloni bo'lib o'tdi  
D) Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon bo'lib o'tdi

18. Qadimgi Italiya hududida yashagan etrusklar nima maqsadda yunon koloniyalari bilan kurash boshladi?

- A) Sitsiliyaga egalik qilish masalasida  
B) Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun  
C) Keng ko'lamda qurilish ishlarini olib borish uchun  
D) Appenin yarimoroliga egalik qilish uchun

19. Qaysi javobda Afg'oniston hukmdori Abdurahmon boshqaruvi davrida o'tkazilgan tadbirlar to'g'ri berilgan?

- 1) mamlakatda yagona pul birligi joriy etildi; 2) yagona soliq joriy etildi; 3) mamlakat uchun bir xil tosh-tarozi joriy qilindi; 4) chet el savdosi uchun boj to'lovlarini oshirdi; 5) mamlakat uchun yagona uzunlik o'lchovlari joriy etildi; 6) mamlakatni yangi konstitutsiyasini qabul qildi.  
A) 2, 3, 6      B) 1, 4, 6  
C) 1, 3, 5      D) 2, 4, 5

20. Quyidagilardan noto'g'ri javobni toping.

- A) Muhammadniyoz Nishotiy adabiyotda munozara janriga katta hissa qo'shgan  
B) "Husn-u dil" dostonida Raqib, Fasod, Nafs obrazlari salbiy sifatlar sifatida turli yovuzliklar timsoli qilib tasvirlanadi  
C) "Qushlar munozarasi" asarida 12 ta qush o'rtasidagi bahs tasvirlanadi

D) "Husn-u dil" asarida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi

### 3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. Quyidagi qaysi javob Livan davlati tarixi bilan bog'liq?

- A) 1946-yil 22-martda amir Abdulloh I ibn Husayn mamlakat podshohi bo'ldi  
B) Jahonda aniqlangan neft zaxiralarining 1/4 qismi shu yerda joylashgan edi  
C) 1975-yil falastinlik jangarilar bilan xristianlar otryadlari o'rtasidagi to'qnashuv fuqarolar urushini boshlab berdi  
D) Feysalning obro'si ortib borib, Eron bilan munosabatlarni yaxshilay boshladi

22. Afrikadagi Mali davlati nima uchun kuchsizlana borgan va qachon butunlay inqirozga uchragan?

- A) feodal tarqoqlik, taxt uchun kurashning avj olganligi va XV asrda  
B) feodallarning bir-biriga hujumi, taxt uchun kurashning avj olganligi va XIV asrda  
C) feodallarning mustaqillikka intilishlari, taxt uchun kurashning avj olganligi va XVII asrda  
D) tashqi dushmanlar hujumi, ularning taxt uchun kurashining avj olganligi va XIV asrda

23. Londondagi Tauer ko'prigining qurilishi tugallangan yilda sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Fransiya Laos ustidan protektoratini o'rnatadi  
B) Rossiya imperiyasi tomonidan Kushka shahri egallandi  
C) Avstriyada hukumat tomonidan ishchilar harakatiga qarshi "Favqulodda qonun" joriy etildi  
D) R. Dizel tomonidan yonilg'i siqilganida o'z-o'zidan alangalanib ketadigan yangi dvigatel yaratiladi

24. O'rta asrlarda Fransiya yaxlit markaziy hokimiyatga bo'ysundirilgan davrda yuz bergan voqeani toping.

- A) Bartolomeu Diash boshchiligidagi ekspeditsiya Afrika janubini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi  
B) Maderiya, Azor, Kanar orollari kashf etildi  
C) Oltin O'rda ulus nomi bilan to'rtta yirik viloyatga bo'linib ketdi





# Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi)

Tarix fani 11-sinf

21.10.2024

D) Germaniya Shimoliy dengizda raqobatchisi Daniya qiroliga zarba berdi

25. Ikkinchi jahon urushi davrida jang maydonlaridan qaytmagan o'zbek yozuvchi va shoirlarini aniqlang.

- A) Shuhrat, Mirzakalon Ismoil, Vali G'afurov
- B) Mirtemir, Turob To'la, Mirmuhsin
- C) Obidjon Abdurahmonov, Sulton Jo'ra, Burhon Tursunov
- D) Usmon Nosir, Oybek, G'afur G'ulom

26. Quyidagi ma'lumotlardan noto'g'ri javobni aniqlang.

- A) Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'llagan, xususan jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan – qanbullarni joriy etgan
- B) Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'ladigan sabablar bo'lgan. Bu sabablar – o'z davlati chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalash, karvon yo'llarini turli yo'lto'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish edi
- C) Amir Temur Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabatlarni yaxshilash tarafdori bo'lgan. Boyazid qoraqo'yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada 1402-yilda ikki davlat o'rtasida urush boshlanadi. Bu jangdagi Amir Temurning g'alabasi Rus knyazliklarining birlashishlari uchun buyuk ahamiyat kasb etadi
- D) Amir Temur o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida Fors, Ozarbayjon, Iroq, Suriya hududlariga uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlarni amalga oshiradi

27. O'rta asrlar tarixi bilan bog'liq noto'g'ri berilgan ma'lumotni aniqlang.

- A) Rim imperiyasi Britaniya orollarini istilo qilganida orol janubida kelt, britt, shimolida – hozirgi Irlandiya va Shotlandiyada – skot, pikt qabilalari yashagan
- B) Xristian katolik cherkovi homiyligida bo'lgani uchun Muqaddas Rim imperiyasiga "muqaddas" nomi berilgan

C) Konstantinopol shahri o'rnidagi yunonlarning Megara shahri koloniyasi Vizantiy nomidan ko'pincha Vizantiya deb ham atashgan

D) Xalqlarning buyuk ko'chishlari davrida Itil (Volga) daryosi havzasida yashagan turkiy bulg'or qabilasi janubga ko'chib, hozirgi Bolqon yarimorolidagi Bolgariyaga borib joylashgan

28. Fermopil jangining Ahamoniylar davlati uchun muhim bo'lgan jihatini aniqlang.

- A) aynan shu jangdan keyin forslar makedoniyaliklarni quvib chiqarishadi
- B) bu jangdan so'ng forslar O'rtayer dengiziga chiqishadi va Finikiyani egallashadi
- C) jangdan keyin forslar O'rta Yunonistonga yetib borishadi va Afinani egallashadi
- D) makedoniyaliklarni o'zlariga qaram qilishadi

29. Temir davri bilan bog'liq nomuvofiq javoblarni aniqlang.

- 1) temir buyumlarning ommalashuvi asta-sekinlik bilan davom etgan; 2) temir davri boshlarida Old Osiyo aholisi bir necha guruhlariga bo'lingan edi; 3) temirdan birinchi bo'lib foydalangan xalq Kichik Osiyolik xalqlar edi; 4) O'rta Osiyoda temir buyumlarning tarqalishi mil. avv. XIV-XIII asrlarga to'g'ri keladi; 5) temir davrida ijtimoiy tizim taraqqiyotida hududiy qo'shnichilik jamoasi shakllandi; 6) temir davrida ona urug'i davridan ota urug'i davrida o'tildi;
- A) 1, 3, 5      B) 2, 4, 5
- C) 2, 4, 6      D) 1, 3, 4

30. Buxoro xonligida harbiy qo'shin qismlari (bo'linmalari) va ularning harbiy yurishlar vaqtidagi vazifalari o'zaro to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) chanoh; 2) katta va kichik g'ullar; 3) manglay; 4) tug'chi.
- a) dushman tomonidan asir olib kelish; b) davlat bayrog'ini qo'riqlash; c) qo'shinning qalb qismini dushmanning bexosdan qilinadigan hujumidan saqlash; d) qo'shinning o'ng va chap qanotlarini qo'riqlash; e) Oliy bosh qo'mondon (xon) va sarkardalarni himoya qilish.
- A) 1-d, 2-e, 3-a, 4-b      B) 1-e, 2-d, 3-a, 4-b
- C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-e      D) 1-d, 2-e, 3-c, 4-b

